

керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил янв. ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқи. // Халқ сўзи газетаси, 2017.16 январ, №11

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон”, 2017.

3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017йил, 6-сон, 70-модда.

4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш таракқиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.

5. Yo'ldoshev J. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: O'qituvchi. 2000 y.

6. Подласый И.П. Педагогика. В 2х кн. М.: Владос, 2003 г.

Internet saytlari

<http://tdpu.uz>

<http://Ziyounet.uz>

<http://edu.uz>

www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)

<http://teoriya.ru>

<http://uni-vologda.ac.ru>

<http://pedlib.ru>

<http://pedagog.uz>

<http://ndpu.uz>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



Ro'yxatga olindi:
BD 5110900-3.02
2018 yil «3» 03

Olly va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi
2018 yil «27» 03

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:
Ta'lim sohasi:
Ta'lim yo'nalishi:

100000 – gumanitar
110000 – pedagogika
5110900 – pedagogika va psixologiya

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 24 03 dagi 274 -sonli buyrugining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil 3 03 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Saliyeva Z.T. - Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Shayzakova N.S. - Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Tayloqov N.I. - Qori-Niyoziy nomidagi O'PFITL direktori, p.f.d., prof.

Tadijiyeva M.X. - Toshkent pedagogika kolleji direktori, p.f.n.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2018 yil 24 03 dagi 5 -sonli bayonnomasi).

6. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Ijtimoiylashuv mexanizmlari.
7. Bolaning sosiumda rivojlanishi.
8. Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida.
9. Ijtimoiy pedagogik tadqiqotning mohiyati.
10. Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyalari
11. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya
12. Oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat
13. Vasiylik va homiylik
14. Ota-ona qaramog'ida bo'lmagan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik ish yuritish.

15. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

16. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan ish yuritishi.

17. Bolalar ichkilikbozligi ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.

18. Giyohvandlik ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.

19. Ijtimoiy - pedagogik texnologiya strukturalari va mazmuni.

20. Ta'lim muassasasi ijtimoiy pedagogning ish texnologiyalari.

21. Bolalar muassasasida ijtimoiy pedagogning kasbiy maqomi va vazifalari.

22. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati vositalari.

23. Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari.

24. Nomaqbul oilalar bilan ishlash ijtimoiy - pedagogik texnologiyalari.

25. Imkoniyatlari cheklangan bolani tarbiyalayotgan oila bilan ishlash ijtimoiy pedagogik texnologiyalar.

Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Kieron Hutton. "Social pedagogy in UK". -Angliya. Russel House Publishing, -2013.
2. Egamberdieva N.M. «Ijtimoiy pedagogika» - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009 y.
3. Mavlonova R. va boshqalar "Ijtimoiy pedagogika" T.: Istiqbol, 2009 y.
4. Галагузова М. А. Социальная педагогика – М.: Влaдoс, 2000 г.
5. История социальной педагогики / Под. ред. М.А. Галагузовой – М.: Влaдoс, 2003 г.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий лавобгарлик – хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Mustaqillikkacha davr va bugungi kundagi ijtimoiy hodisalarning qiyosiy tavsifini tuzish.
2. Mamlakatimizning hozirgi vaqtda yuz berayotgan salbiy ijtimoiy hodisalarini bartaraf etishdagi imkoniyatlarini yoritib berish.
3. Ta'lim-tarbiya muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat sohasiga kiradigan davlat, tashkilotlari va muassasalari faoliyatini o'rganish.
4. Ijtimoiy pedagogning professiogrammasi modelini tuzish.
5. O'zbek oilasida bolada tarbiyalanadigan ijtimoiy sifatlar va ularni baholash.
6. O'zbek (maqbul va nomaqbul) oilalarida bolalarning ijtimoiylashuvidagi o'ziga xosliklarni o'rganish.
7. Ijtimoiy pedagogning tarbiyaviy faoliyatining biror yo'nalishi (o'qish, hisob, rasm chizish) bo'yicha xarakatlari samaradorligi monitoringi metodlarini asoslash.
8. Bolalarning aqliy, jismoniy va estetik rivojlanishini pedagogik tashxis etishning metodlarini amaliy o'rganish. Nutqiy nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-ijtimoiy korreksiyalash metodlari.
9. Rivojlanishida anomal bo'lgan bolalarni reabilitatsiyalashda ijtimoiy pedagogning imkoniyatlari.
10. Ota-onalar uchun ijtimoiy pedagogik karta-so'rovnoma tuzish.
11. «Texnologiya», «ijtimoiy texnologiya», «pedagogik texnologiya» tushunchalariga ta'rif va ularning mohiyatini yoritish, ularning «ijtimoiy – pedagogik texnologiya» tushunchasiga birlashishi mohiyatini yoritib berish.
12. Maktabgacha tarbiya muassasalarida ijtimoiy – pedagogik texnologiyalarni qo'llash mumkin bo'lgan sohalarni yoritish.
13. Ijtimoiy – pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va realizatsiyalash sxema – algoritmini tuzish.
14. Muayyan obyekt (vaziyat yoki insonning) ijtimoiy – pedagogik tashxis xaritasini tuzish.
15. Namunaviy funktsional ijtimoiy – pedagogik texnologiya strukturasini tuzish.
16. Ijtimoiy – pedagogik texnologiyaning ekspert baholash jadvalini tuzish.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish;
 - 2) tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.
- Talabalarining mustaqil ta'limi har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

I. O'quv fanining dolzarbligi oily kasbiy ta'limdagi o'rni

«Ijtimoiy pedagogika» kursi talabalarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirish bilan birga, ularni jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy omillar, shuningdek, mazkur fanning obyekti, predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, kategoriyalari, ijtimoiy pedagog kasbining o'ziga xos xususiyatlari kabi muammolar ustida bosh qotirishga undaydi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy ta'lim qonuniyatlarini o'zlashtirish.

Fanning vazifasi – gumanitar bilishning sohasi sifatida ijtimoiy pedagogika, uning obyekti, tadqiqot predmeti va asosiy kategoriyalari haqida nazariy bilimlar berish; talabalarda ijtimoiy-pedagogik tadqiqotga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. **Talaba:**

«Ijtimoiy pedagogika» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an'analari;
- ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining tarixiy omillari;
- pedagog, ijtimoiy-pedagog va ijtimoiy xodimning kasbiy faoliyatdagi farqlari **haqida malakaga ega bo'lishi**;
- ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyasini;
- asotsial oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish shakllarini;
- ijtimoiy pedagog faoliyatida ishontirish metodlari, korreksion mashqlarni qo'llash qoidalarini;
- tarbiyada umuminsoniy va milliy qadriyatlarini **bilishi va ulardan foydalanish**;
- kasbiy faoliyatda sotsiologik metodlardan foydalanish;
- deviant xulqli bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish va olib borish;
- ijtimoiy pedagogik faoliyatni ta'minlash **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Ijtimoiy pedagogika fanning nazariy asoslari

1-mavzu. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyaga ehtiyoj va zamonaviy jamiyat rivojining zaruriy shartlari

Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya faniga zaruriyat va uning ahamiyati.

2-mavzu. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya fanining paydo bo'lishining madaniy-tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari

Rahmdillik va xayr-sahovat ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an'ansi sifatida. O'zbekistonda xayr-sahovatning rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda "ijtimoiy pedagog" kasbining paydo bo'lishi.

3-mavzu. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi

Antik davrda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi. XIV-XV asrlarda ijtimoiy-pedagogik g'oyalarning rivojlanishi. XVI-XIX asrlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyat. XX asrning 20 yillarida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar va pedagogik faoliyatning tubdan yangilanishi. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining zamonaviy bosqichi.

4-mavzu. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi

«Avesto» va adabiy manbalarda ijtimoiy-pedagogik g'oyalar. O'rta asrlarda O'rtasiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy-pedagogik g'oyalari. XVIII-XIX asr ma'rifatparvarlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlari. XX asr boshlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat. II jahon urushi yillarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

5-mavzu. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar

O'zbek xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri. O'zbek etnografiyasida mukammal inson modeli. Islom – monoteistik din. Hadislarda ijtimoiy-pedagogik fikrlarning yoritilishi.

2-Modul. Ijtimoiy pedagogika fanning amaliy ahamiyati

6-mavzu. Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon

Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot obyekti va ijtimoiy pedagogika rivojlanishi tarixidan. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon.

IV. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsifa etiladigan mavzulari:

1. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyaga ehtiyoj va zamonaviy jamiyat rivojining zaruriy shartlari.

2. Ijtimoiy pedagogik faoliyat rivojlanish tarixiy shart-sharoitlari.

3. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixidan.

4. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.

5. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar.

6. Ijtimoiy pedagogika integrallashgan bilim sohasi sifatida.

7. Jismoniy, psixik, ijtimoiy, pedagogik me'yordan og'ishish.

8. Ijtimoiy – pedagogik faoliyat.

9. Ijtimoiy pedagogika tamoyillari.

10. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Ijtimoiylashuv mexanizmlari.

11. Irsiyat, muhit va bola rivoji.

12. Bolaning sotsiumda rivojlanishi.

13. Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida.

14. Ijtimoiy pedagogik tadqiqotning mohiyati.

15. O'smirlarning ijtimoiy dezadaptatsiyasi.

16. Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyalari

17. Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya

18. Oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat

19. Vasiylik va homiylik

20. Ota-ona qaramog'ida bo'lmagan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik ish yuritish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogikaga oid darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi. Seminar mashg'ulotlari amaliy topshiriqlarni bajarish bilan uzviylikda amalga oshiriladi.

vazifalari. Maktabgacha muassasaning tayanch muammolari: dastlabki ijtimoiylashtirish, individual qobiliyatlarni rivojlantirish, motivatsiya, moslashish, xulq uslubini shakllantirish va sh.k. ni hal etish. Ijtimoiy pedagogning psixologik, pedagogik va tibbiy yo'nalishdagi markazlar bilan tashqi aloqalari. Namunaviy texnologik xaritasi uning bosqichlari tavsifini yaratish. Ijtimoiy-pedagogik ishning asosiy metodlari: loyihalash, rejalashtirish, modellashirish, dasturlash. Tashhis va ishtiqoblash vositalari, so'rovnomalar, kuzatuv va tahlil hujjatlari blankalari.

31-mavzu. Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashning ijtimoiy pedagogik texnologiyalari

Ishning asosiy yo'nalishlari: mazkur toifadagi bolalarni aniqlash va guruh yoki yakka tartibda ishini tashkil etish. Tashkiliy ijtimoiy pedagogik texnologiyalar: 1) tarbiyasi og'ir bolalar haqida ma'lumotlar bankini shakllantirish; 2) bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi muammolarini tashhislash; 3) bola, guruh, jamiyat bilan ijtimoiy – pedagogik ishlar dasturini tuzish va tasdiqlash; 4) dasturning bajarilishi sharoitlarini ta'minlash; 5) maslahat xizmati; 6) ijtimoiy pedagogning idoralararo aloqalari.

32-mavzu. Nomaqbul oilalar bilan ishlashning ijtimoiy – pedagogik texnologiyalari

Oila – ijtimoiylashtirishning bosh instituti. Oilada nomaqbullik ko'rsatkichlari va bola tarbiyasiga salbiy ta'siri. Bola – ijtimoiy pedagogning sa'y-harakatlari markazi. Nomaqbul oila bilan ishlash texnologiyasi darajalari: profilaktika, tashhislash, reabilitatsiyalash. Ota – onalarga pedagogik ma'rifat tarqatish; otalar va mutaxassislarining ixtiyoriy hamkoligi; erkin tarbiyalash targ'iboti. Diagnostik texnologiya tamoyillari: obyektivlik, axborot manbalarining ko'p sonliligi, klientosentrizm, konfidentsiallik (maxfiylik). Diagnostik texnologiya metodlari: shkalalashtirish, loyihalash va assotsiativ loyihalash, kartochkali, ekspressiv metodikalar, ijtimoiy biografiyalarning metodi, hujjatlar tahlili. Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam turkumi (sikli). Reabilitatsiya ishi darajalari:

- individual (maslahat texnologiyalari, xat – murojaat, ijtimoiy patronaj);
- guruhli (suhbat, ma'ruza, disput, yig'ilish, diskussiyalar, trening);
- umumiy (suhbat, ma'ruza. Ommaviy aksiyalar - hasharlar, sayohatlar, bayramlar uyushtirish).

33-mavzu. Imkoniyatlari cheklangan bolani tarbiyalayotgan oila bilan ishlashga yo'naltirilgan ijtimoiy pedagogik texnologiyalar

Keyingi o'n yillikda butun dunyoda imkoniyatlari cheklangan bolalar soni ortganligi. «Izolyatsiyadan integratsiyaga» muammosiga zamonaviy yondashuv. Ijtimoiy pedagogning maqsadi – oilaning vaziyatli – rolli moslashganligini o'rnatish. Ijtimoiy – rolli moslashganlik ko'rsatkichlari: bolaga munosabat; oilaning reabilitatsion faolligi; oilaning reabilitatsion madaniyati. Oila bilan o'zaro hamkorlikning texnologik modellari: yordam; psixologik, krizisintervent, muammoli-yo'naltirilgan.

7-mavzu. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada "me'yor" va "me'yordan og'ish" tushunchasi. Me'yordan og'ish tiplari

Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif. Me'yordan og'ish turlari. Me'yordan og'ish nazariyasi.

8-mavzu. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi. Kasbiy faoliyatning tuzilishi. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subyekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy bilimdonlik. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sohalari.

9-mavzu. Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari

"Tamoyil" va "qoida" tushunchasi. Tabiat bilan uyg'unlik tamoyili. Madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Insonparvarlik tamoyili.

10-mavzu. Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari va mexanizmlari

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Ijtimoiy ta'lim. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.

11-mavzu. Ijtimoiylashuv omillari va vositalari

Ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi omillar. Tashqi va ichki omillar. Mikro, mezo va makro omillar. Shaxs ijtimoiylashuviga siyosiy, iqtisodiy, ekologik omillarning ta'siri.

12-mavzu. Bolaning sotsiumda rivojlanishi

Bolaning ilk ijtimoiylashuv davri. Bolaning ijtimoiylashuvda oila, ta'lim-tarbiya muassasalari, madaniyat, din va mahallaning o'rni.

13-mavzu. Mahallalar – ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish organi

Mahallaning paydo bo'lishi tarixidan. Mahallaning ijtimoiy-pedagogik o'rni. Mahallada qadriyatlar va ijtimoiy ong translyatsiyasi.

14-mavzu. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar

Ilmiy tadqiqotning mohiyati. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalari. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotning bosqichlari va metodlari.

15-mavzu. Deviant xulq – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

O'smirlar yoshida deviansiyaning yuzaga kelishi shart-sharoitlari. Deviansiya turlari. O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishi sabablari. Deviansiya konsepsiyalari.

3-Modul. Ijtimoiy pedagogika fanining metodik ta'minoti

16-mavzu. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyasi

Metodika tushunchasi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari mohiyati. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar.

17-mavzu. O'zbekistonda faoliyat olib boruvchi ijtimoiy-reabilitatsion muassasalar

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-reabilitatsion muassasalarning tubdan yangilanishi. O'zbekistonda SOS – bolalar mahallasining faoliyati.

18-mavzu. Oilada olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat

Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari. Oilaning ijtimoiy vazifalari. Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakli, metod va vositalari.

19-mavzu. Vasiylik va homiylik

Vasiylik va homiylik tushunchasi. Vasiylik va homiylik tarixidan. Vasiylik va homiylikning me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi. O'zbekiston va chet ellarda vasiylik va homiylik.

20-mavzu. Yetim bolalar bilan olib boriladigan faoliyat

Yetimlikning kelib chiqishi sabablari. Yetim bolalarning psixologiyasi. Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

21-mavzu. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat

Chaqaqoqlik davrida ijtimoiylashuv moslashuv. Go'dalik davrida ijtimoiy moslashuvning o'ziga xosliklari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

22-mavzu. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan faoliyati

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ijtimoiy funksiyalari. Maktabdan tashqari vaqtni to'g'ri tashkil etishda ijtimoiy pedagogning o'rni. Tengqurlar jamoasi va bolalar submadaniyati. Maktabda pedagogik jihatdan me'yordan og'ishganlar bilan ijtimoiy pedagogning olib boradigan ishlari shakli, metod va vositalari. Ijtimoiy pedagogning o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishga oid vazifalari.

23-mavzu. Spiritli ichimliklar iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat

Spiritli ichimliklar iste'mol qilish muammosi. Bolalarning spiritli ichimliklar ichishining sabab va oqibatlari. Bolalardagi spiritli ichimlikka munosabat darajasi va har bir darajada ijtimoiy pedagogning yordam berish shakllari.

24-mavzu. Giyohvandlik – deviant xulq shakli sifatida

Giyohvandlik muammosi. Narkotik moddalarning turlari va tasnifi. O'smirlar giyohvandligining sabablari va oqibatlari. Bolalarda giyohvandlikka munosabat darajasi va har bir darajada ijtimoiy pedagogning yordam berish shakllari.

25-mavzu. Jinoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy hatti-harakatning namoyon bo'lish shakli sifatida

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosi. Voyaga yetmagan xuquqbuzlar uchun maxsus o'quv tarbiyaviy muassasa. Voyaga yetmagan jazoga xukm qilinganlarning yosh bilan bog'liq o'ziga xosliklari hamda tarbiyaviy muassasalarda joylashuvi.

26-mavzu. Ijtimoiy - pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishning nazariy asoslari

Ijtimoiy - pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati. Nazariy, amaliy va tadqiqotchilik ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar. Ijtimoiy pedagogning amaliy faoliyati va texnologiyalarning o'zaro aloqalari. Ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar tasnifi. Tasnifning asoslari va mezonlari. Umumiy va xususiy ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar. Diagnostik, diagnostik - prognostik, ekspert - baholash ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar.

4-Modul. Ijtimoiy pedagogika fanini texnologiyalashtirish

27-mavzu. Ijtimoiy - pedagogik texnologiya strukturasi va mazmuni

Bosqichlilik - ijtimoiy - pedagogik texnologiya strukturasi va uni amalga oshirish jarayonining asosiy xususiyati sifatida. Ijtimoiy - pedagogik texnologiyani tanlash jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi. Ta'lim muassasasining yo'nalishi, ijtimoiy - pedagogik vazifalar bilan bog'liqligi. Ijtimoiy-pedagogik tashxis, istiqbolash, rejalashtirish, boshqarish va baholash.

28-mavzu. Ta'lim muassasasi ijtimoiy pedagogning ish texnologiyalari

Ta'lim muassasasi ijtimoiy - pedagogik ishni tashkil etish. Ta'lim muassasasi ijtimoiy - pedagogik xizmatining bolani ijtimoiylashtirish (sotsializatsiya), uni tarbiyalash, sog'lomlashtirish, himoyalash, o'z-o'zini realizatsiyalashni rivojlantira boshlash muammolariga yo'naltirilganligi.

29-mavzu. Bolalar muassasasida ijtimoiy pedagogning kasbiy maqomi va vazifalari

Ijtimoiy pedagogning kasbiy maqomi yangi ijtimoiy – iqtisodiy, huquqiy va psixologik omillar bilan belgilanganligi. Ta'lim muassasasida ijtimoiy pedagog faoliyatining boshqaruv, tarbiyaviy va tashkiliy jihatlari. Ta'lim muassasasi, oila va ijtimoiy muhit bilan ishlash ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

30-mavzu. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati vositalari

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati vositalari uning tashxis, boshqaruv va muvofiqlashtirish ishlari bilan belgilanganligi. Dastlabki tanishish – bilish